

**ZAMONAVIY FUQAROLIK QONUNCHILIGIDA IT OBYEKTLARINI
MEROS QILIB OLISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH**

Shodmonova Munisa Erkinjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

gmail: shodmonovamunisa98@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik huquqida bиринчи bo‘lib it obyektlarini meros qilib olish tahlil qilinadi. It obyektlari fuqarolik huquqi obyektlarining yangi turi ekanligi aniqlandi. Fuqarolik huquqi subyektlarining raqamli shakldagi obyektlarga nisbatan huquqini hayotligida balki vafotidan so‘ng ham amalga oshirishining huquqiy yo‘llari o‘rganib chiqilib qonunchilikka takliflar kiritildi. It obyektlarining meros tarkibidagi o‘rni va vorisga qoldirish asoslari o‘rganildi. It obyektlari ularni yaratish, o‘zgartirish, saqlash, yoki foydalanish uchun ishlataladigan texnologiya turiga qarab o‘zgarishi isbotlangan. Virtual obyektlarning huquqiy tabiatini moddiy narsalarning huquqiy tabiatidan, bunday obyektlarning nomoddiyligi va ularga nisbatan fuqarolik huquqlarini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Elektron obyektlarni meros qilib olishning alohida huquqiy rejimini joriy etish zarurligini asoslash turli fanlar vakillari va texnika mutaxassislari bilan o‘zaro hamkorlikni nazarda tutadigan murakkab mavzuli ilmiy tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishi ekanligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: meros tarkibi, qonun bo‘yicha meros, vasiyatnama, axborot texnologiyalari, virtual obyektlar

Shaxs vafot etgandan so‘ng uning xususiy mulkini avloddan-avlodga o‘tishini huquqiy tartibga solish fuqarolik kodeksining V bo‘limida mulk egasining vafotidan keyin uning barcha mol-mulki uning vorislariga o‘tishiga doir qonun normalari belgilab qo‘yilgan.

Meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo‘lgan uning o‘limidan keyin ham bekor bo‘lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi.

Fuqarolarning qonun bilan ta’qiqlanmagan barcha mulki va mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatları xususiy mulk sifatida meros tarkibiga kiradi.

Meros mulki tarkibi davlat tomonidan imtiyozli ravishda yoki umumiy asoslarda meros qoldiruvchining egaligiga belgilangan mulklar, yer uchastkalari hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq tarzda berilgan turli obyektlar hisbiga kengayadi. Har qanday mulkning meros qoldiruvchining o‘ziga tegishli qismi meros tarkibiga kiradi.

Meros tarkibi ashyolar, mulkiy huquqlar va mulkiy majburiyatlardan iborat.

Ashyolar bular pul va qimmatli qog‘ozlar bo‘lishi mumkin. Mulkiy huquqlar (shu jumladan, meros qoldiruvchi tomonidan tuzilgan shartnomalar (agarda qonunda yoki shartnomada boshqacha belgilangan bo‘lmasa), intellektual mulk obyektlariga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan bo‘lgan mutlaq huquqlar, meros qoldiruvchi olishi belgilangan, lekin u tomonidan olinmagan pul mablag‘lari). Mulkiy majburiyatlar, shu jumladan, qarzlar (merosxo‘rlarga qoldirilayotgan meros qiymati doirasida).

Yuqorida sanab o‘tilgan mulk va mulkiy huquq va majburiyatlarlarning meros bo‘lib o‘tishi huquqiy tartibga solingan bo‘lib, bugungi kunda meros tarkibi kengayib bormoqda . Bu jadallik bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari hisobiga amalga oshmoqda. Chunki axborot texnologiyalari bugun dunyoning har bir nuqtasiga, har bir sohasiga kirib chuqur ildiz otmoqda. Bularsiz biz yashayotgan davrni tasavvur ham qilib bo‘lmaydi.

Ayniqsa hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardan deyarli barcha inson foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlarning moddiy qiymatga ega turlari ham mavjud bo‘lib u fuqarolik huquqidagi an’anaviy obyektlarga ham o‘shab ketadi. Undan insonlar har kuni foydalanadi va mulkiy huquqlarga ega bo‘ladi. Masalan You tube ko‘rilgan videolar va reklamalarga pul to‘laydi. Bugungi kunda you tube kanallaridan olinayotgan foyda yuz ming dollardan oshgan.

Lekin shaxs vafot etganda unga tegishli virtual obyektlarga nima bo‘ladi?

Oksford universiteti akademiklari tadqiqotiga ko‘ra 2018-yilgi ma’lumotlardan kelib chiqilsa facebookda sahifasiga ega foydalanuvchilarning bir milliard to‘rt yuz millioni 2100-yilgacha vafot etgan bo‘ladi. Ammo agarda ijtimoiy tarmoq hozirgidek o‘sishda davom etsa asr so‘ngiga borib vafot etgan foydalanuvchilar soni to‘rt milliard to‘qqiz yuz millionga yetishi mumkin. Osiyo va Afrika yaqin yillarda facebookdan eng ko‘p foydalanuvchilarga ega bo‘lishi mumkin. o‘zbekistonda ham dunyodagi kabi raqamlashuv tendensiyasi tez davom etyapti. Yildan yilga ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni ko‘payayapti. 2022-yilgi statistikaga ko‘ra o‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko‘rsatkichi quyidagicha: telegram mesenjeridan 18 million facebookdan 4,7 million, instagramdan 3,7 million, vkotactedan 2,6 million, linkedndan 288 ming, twitterdan 51,6 ming kishi foydalanadi.

Agar biz dunyodan o‘tsak ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimizga nima bo‘ladi. Bu bir qaraganda oddiy narsadek ko‘rinishi mumkin lekin bugun bozor, iqtisodiyot, biznes marketing qanchalik rivojlanayotganligi barchamizga ma’lum. Biznes egalari o‘z mahsulotlarini reklamasiga juda kata e’tibor beriladi. Chunki reklamasiz marketing rivojlanmaydi. Biz har kuni erta tongda uyg‘organimizda ijtimoiy tarmoqlardagi hisobimizga kirib ko‘ramiz. Asosiy faoliyati ijtimoiy tarmoqdagi hisobini rivojlantirish va kuzatuvchilar uchun turli xil ko‘ngilochar kontentni joylshtirishdan iborat bo‘lgan insonlar ham oz emas. Facebook shaxs vafot etgandan so‘ng uning

foydanuvchisining profiliga xotira maqomini beradi. Ya’ni facebook yordam markazining tushuntirishiga ko‘ra bu vafot etgan shaxsning do‘satlari va oila a’zolarining u bilan bog‘liq xotiralarni eslashi mumkin. buning uchun vafot etgan shaxsning yaqin qarndoshi facebookka so‘rov yuborishi kerak. Vafot etgan shaxs bilan bog‘liq kontent masalan fotosuratlar va xabarlar facebookda qoladi va baham ko‘rilgan auditoriyaga ko‘rinadi. Instagram ham xuddi facebook singari foydanuvchilari vafot etganda unga xotira maqomini berishi mumkin. sshunda instagramm sahifasiga hech kim o‘zgartirish kiritolmaydi. Twitter esa marhum bilan munosabatalardan qat’iy nazar uning hisobiga kirishga hech kimga ruxsat bermaydi. Google o‘z foydanuvchilariga hisob uchun rejalar tuzishni takli qiladi. Masalan nofaol akkaunt menejeri funksiyasi orqali kim sizning hisobingizga kirishi va uni o‘chirishiga ruxsat berishingizni belgilab qo‘yishingiz mumkin. ya’ni oldindan siz merosxo‘r tayinlab qo‘ysangiz bo‘ladi.

Bundan ko‘rishimiz mumkinki barcha it obyektlarini meros qilib olishni bir xil turda huquqiy tartibga solishga to‘sqinlik qiladigan omillar ham bor.

Umuman olganda qonunchilikda raqamli muhit, virtual obyekt tushunchalariga ta’rif mavjud emas. Lekin tadqiqotchilarning ta’kidlashiga ko‘ra bu atamalar sezilarli darajada tarqalayotganligi aniqlandi. Asta sekinlik bilan yuridik fan tomonidan idrok etila va o‘rganila boshlayapti.

Hozicha ijtimoiy tarmoqlardagi profillarimizni keyinchalik nima bo‘lishi haqida o‘ylab qo‘ysak yaxshi bo‘ladi.

Elektron obyektlarni meros qilib olishning huquqiy rejimi istiqbolli hisoblanadi. Bu muakkab mavzudagi ilmiy tadqiqot turli soha va fan vakillari, texnik mutaxassislar bilan o‘zaro hamkorlikni talab etadi

Virtual obyektlarni mulk mezoniga ko‘ra ajratish natijasida an’anaviy fuqarolik obyektlari kabi mulkiy va nomulkiy huquqlarga ajratilishi mumkin.

Amaldagi qonunchilik va huquqiy amaliyotni tahlil qilish asosida axborot texnologiyalari allaqachon keng tarqalgan degan xulosaga kelish mumkin va meros huquqini amalga oshirishda foydalanish mumkin. It obyektlarini meros qilib olish yoki meros ilib qoldirishning eng optimal usuli bu vasiyatnomaga tuzishdir. Foydalanuvchi vafotidan so‘ng ijtimoiy tarmoqlardagi hisobini tirikligida o‘zi hal etishi maqsadga muvofiq. Buning uchun qonunchilikka quyidagi o‘zgartirishni kiritishni taklif etaman. Fuqarolik kodeksining 67-bobiga qo‘srimcha band kiritishi kerak. Masalan 1115-moddaga ko‘ra shaxs maxfiy vasiyatnomaga tuzishi mumkin. Maxfiy vasiyatnomaning qulayligi undagi meros qoldiruvchining irodasi hech kim oldindan bilmasligidir. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi maxfiy vasiyatnomaga tuzish orqali vafotidan so‘ng ijtimoiy tarmoqdagi hisobi taqdirini hal etadi. Ya’ni o‘z irodasini bildirish orqali hisobiga kirish parolini qoldirib ketishi mumkin. Merosxo‘r qoldirilgan ma’lumot orqali uning hisobiga vorislik qiladi.

Xulosa qiladiga bo‘lsak it obyektlari xususiyatini yana ham chuqurroq aniqlash, ular bilan bog‘liq huquqlarimizni mulkiy va nomulkiyga ajratish, shaxsdan begonalashtirilishi mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmas turlarini aniqlash va albatta meros bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish talab etiladi. Meros bilan bog‘liq munosabatlar murakkab. Negaki ijtimoiy tarmoqlarda foydalauvchining oshkor etishni xohlmayadigan ma’lumotlari (xabarlar, shaxsi bilan bog‘liq ma’lumotlar) bo‘lishi mumkin. Bularni tartibga solishning eng qulay usuli it obyektlariga nisbatan qonunda mulkiy huquqlarni e’tirof etish, meros qoldirish yo‘li bilan tartibga solishni qonunchilikda huquqiy tartibini ishlab chiqish talab etiladi.

REFERENCES

1. Alina, S.S. (2020). Inheritance of IT-objects under modern civil law. – Qualification scientific work, manuscript copyright. (PhD Dissertation). National University “Odessa Law Academy” Ukraine.
2. Burandt W. et al. (2019). right of inheritance [Erbrecht]. Comment. 3 edition [Kommentar. 3 Auflage]. München: Beck. ISBN 978-3-406-72100-7
3. Elseven, A. (2021). A guide to inheritance and probate in Germany. IamExpat. <https://www.iamexpat.de/expat-info/german-expat-news/guide-inheritance-and-probate-germany>
4. Fedorych, I.Y. (2018). Realization of the right to inherit under the civil legislation of Ukraine. (PhD Dissertation). Training and Research Law Institute of Vasyl Stefanyk Precarpathian National University. https://svr.pnu.edu.ua/wp-content/uploads/sites/5/2018/06/dis_Fedorych-1.pdf